



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo‘minov ko‘chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail:
info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2023 - yil 7 - mart

72-2-0-Q/23

Buxoro viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda - Davlat dasturi) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

2023-yil 1-iyuldan boshlab davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari soni 300 taga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar soni esa 570 taga yetkazilishi;

fuqarolarning pensiya ta’minotini yaxshilash va pensionerlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab pensionerga hisoblangan, lekin o‘z vaqtida olinmagan pensiyani to‘lash muddati 12 oydan 24 oyga uzaytirilishi;

2023-yil 1-sentyabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi;

2023/2024-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliyotga kiritilishi;

2023/2024-o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash yo'lga qo'yilishi;

2023-yil 1-apreldan boshlab maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish maqsadida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ko'p kvartirali uylarning noturar qavatlarida yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish va keyinchalik ularni ta'mirlash hamda jihozlash orqali tashkil etishga ruxsat etililishi;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherik tomonidan ushbu binoning mazkur loyiha uchun bank kreditlari bo'yicha garovga qo'yilishiga oid cheklovlar bekor qilinganligi;

professional ta'lim tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ish beruvchilarning talablariga mos bo'lgan malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash maqsadida 2023/2024-o'quv yilidan boshlab davlat grantlari kollej va texnikumlarning dual ta'lim shakli bo'yicha ham ajratilishi;

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma'lumotnomalarni berish bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tkazilishi;

tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida 2023-yil 1-iyuldan boshlab tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yangi turdagi javobgarlik va jazo choralarini joriy etishga uch yillik moratoriy o'rnatilganligi inobatga olinsin.

3. Buxoro viloyatida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi 1-ilovaga;

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlovchi va muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi tarkibi 2-ilovaga;

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga;

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 4-ilovaga;

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 5-ilovaga;

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 6-ilovaga;

Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 7-ilovaga;

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 8-ilovaga;

Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 9-ilovaga;

Davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha viloyat muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi tarkibi 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining o'rinbosarlari J.Tursunov, M.Xamrayev, F.Ibragimova viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (A.Hamroyev), ichki ishlar boshqarmasi (M.Miralimov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (Sh.Rahmonov), shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda bir hafta muddatda tuman (shahar) va mahalla kesimida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirish bo'yicha tegishli dasturlarni ishlab chiqsin.

5. Shaharlar va tumanlar hokimliklari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlariga:

Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va samarali ijro etilishini ta'minlash;

Davlat dasturi ijrosi bo'yicha keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda mas'ul shaxslarning hisobotini eshitib borish;

Davlat dasturining ijrosini har oyda viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashi yig'ilishlarida muhokama qilib borilishini tashkil etish;

Davlat dasturi ijrosi to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni har oyning 25-sanasiga qadar viloyat muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhiga taqdim etib borish topshirilsin.

6. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (A.Baxronov)ga yil davomida 18-40 yoshli aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish, 40 yosh va undan katta yoshdagi surunkali kasalligi bo'lmagan aholini yurak qon-tomir kasalliklari va qandli diabet kasalliklari, shuningdek onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvlaridan o'tkazish topshirilsin.

7. Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda 2023-yil 1-sentabrdan boshlab:

har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni

ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyotini;

viloyatdagi barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish topshirilsin.

8. Viloyat hokimining o'rinbosarlari J.Tursunov, N.Hamdammov viloyat adliya boshqarmasi (A.Raxmatov), raqamli texnologiyalar boshqarmasi (A.Yaxshiyev), kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (A.Hamroyev), tegishli davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari bilan birgalikda o'n besh kun muddatda masofadan turib, shu jumladan mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'paytirish, undiriladigan to'lovlar miqdorini kamaytirish, talab qilinadigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilish, ko'rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirish, shaffoflikni oshirish, aholi va tadbirkorlar bilan doimiy muloqot maydonchalarini tashkil etish, xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirish, tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishga o'qitish bo'yicha tadbirlar dasturini ishlab chiqib tasdiqqa kiritilsin.

9. Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari M.Xamrayev, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (A.Naimov)ga 2023-yil 1-sentabrga qadar malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash tizimi talablariga to'liq javob beradigan 1 ta namunaviy professional ta'lim muassasasi faoliyatini yo'lga qo'yish topshirilsin.

10. Davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha viloyat muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi (O'.Hamroyev) Davlat dasturi monitoringini yuritsin hamda dastur bajarilishi to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni har oy yakuni bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin.

11. Viloyat teleradiokompaniyasi (O.Shabanov), "Buxoronoma" va "Buxarskiy vestnik" gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov)ga mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish hamda Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xolis va to'liq ma'lumotlarni jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish tavsiya etilsin.

12. Mazkur qaror ijrosining nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Buxoro viloyati hokimi



B.K.Zaripov

Buxoro viloyat hokimining
2023 yil 7 martdagi
72-2-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Buxoro viloyatida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini

“Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid

DAVLAT DASTURI

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
1. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH							
1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish							
1.	Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish.	“Raqamli mahalla” markazini tashkil etish hamda “Ijtimoiy mahalla” axborot tizimini joriy etish. Bunda: Mahalladagi aholi va tadbirkorlarning mavjud muammo va kamchiliklarini “xonadonbay” o'rganish bo'yicha so'rovnomalarni o'tkazish, natijalarini tegishli davlat organlari va tashkilotlariga yuborish hamda ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritish; “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatilgan yordam haqidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritib borish; Mahallalarning hududi, maydoni, infratuzilmasi, chegarasi aks etgan xaritasi, xonadonlarning joylashuvi, raqamlari va ko'cha nomlarining yagona bazasini yuritish; “Ijtimoiy mahalla” axborot tizimi hamda “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integrasiyalashuv platformasi orqali dasturdagi ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish nazarda tutiladi.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish	2023-yil aprel	Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yoshlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosarlari J.Tursunov, N.Hamdamiyov, M.Xamrayev	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, raqamli texnologiyalar boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
2.	Joylarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda mahallalar rolini oshirish.	1. Mahallalarga tegishli tuman (shahar) mahalliy Kengashlari sessiyalari kun tartibiga ko'rib chiqish uchun taklif kiritish, tuman (shahar) mahalliy Kengashlarining qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda ishtirok etish huquqini taqdim etish. 2. Har bir mahallaning “o'sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining ehtiyojidan kelib chiqib, mahallaning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish maqsadida mahallalar qoshida tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish. 3. Mahallalarda “Tadbirkorlar kengashlari”ni tashkil etish , ularning maqomi va vazifalarini belgilash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish	2023-yil may	-	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (kelishuv asosida)	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, adliya boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
3.	Mahallalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.	Mahallalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha 2023-2025 yillarga mo'ljallangan manzilli dastur loyihasiga takliflarni ishlab chiqish. Bunda: xizmat binosida muammosi bo'lgan 67 ta mahallalar uchun xizmat binolarini qurish, jihozlash, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash; binolarni qurishda mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli hamda profilaktika inspektorlari uchun alohida xonalar bo'lishiga e'tibor qaratish nazarda tutiladi.	Manzilli dastur loyihasiga takliflarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish	2023 yil aprel	-	Viloyat hokimining o'rinbosarlari J.Tursunov, N.Hamdorov	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, raqamli texnologiyalar boshqarmasi, ichki ishlar boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi
2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish							
4.	Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish bo'yicha doimiy komissiyalar faoliyatini kuchaytirish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ huquqiy-hujjat loyihasiga takliflarni kiritish: tajriba tariqasida xalq deputatlari viloyat Kengashining komissiya raislarini doimiy asosda faoliyat olib borishlarini tashkil etish; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari ishtirokini ta'minlash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish	2023-yil sentyabr	-	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (kelishuv asosida)	Viloyat adliya boshqarmasi
6-maqsad: Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish							

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
5.	Yangi Oʻzbekiston ma'muriy islohotlarining ikkinchi bosqichi doirasida hududlardagi boshqaruv tizimini isloh qilish.	Mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda ularning faoliyatini takomillashtirish va tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish, boʻysunuv tizimini qayta koʻrib chiqish boʻyicha takliflarni tayyorlash.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflarni kiritish	2023-yil aprel	-	Viloyat hokimligi tashkiliy kadrlar guruhi rahbari I.Maxmudov	Viloyat adliya boshqarmasi
9-maqsad: “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish							
6.	Fuqarolar va davlat idoralari oʻrtasidagi munosabatlarda ortiqcha byurokratiya holatlariga barham berish ishlarini davom ettirish.	1. Davlat xizmatlarini qoʻshimcha toʻlov asosida xizmat koʻrsatuvchi xodimni fuqaroning yashash joyiga chaqirish orqali maxsus texnik qurilmalar yordamida koʻrsatish amaliyotini kengaytirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish	2023-yil aprel	-	Viloyat hokimining oʻrinbosarlari J.Tursunov, N.Hamdamiyov	Viloyat adliya boshqarmasi, davlat xizmatini koʻrsatuvchi tashkilot va muassasalar
		2. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma'lumotnomalar berilishini bosqichma-bosqich elektron shaklga oʻtkazish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish	2023-yil aprel	-	Viloyat hokimining oʻrinbosari M.Xamrayev	Viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi, raqamli texnologiyalar boshqarmasi, viloyat tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi
		3. -Aholiga davlat xizmatlari koʻrsatadigan davlat organlari va tashkilotlarida koʻrsatilgan xizmat sifati, xodimlarning muomala madaniyati va boshqa koʻrsatkichlarni maxsus elektron moslamalar orqali baholash tizimini yoʻlga qoʻyish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil aprel	Hisob-kitoblarga koʻra	Viloyat hokimining oʻrinbosarlari J.Tursunov, N.Hamdamiyov	Davlat xizmatlari koʻrsatuvchi tashkilot va muassasalar, viloyat adliya boshqarmasi, raqamli texnologiyalar boshqarmasi
		4. Elektr, gaz va suv sarfi hisoblagichlarini qiyoslashdan oʻtkazish boʻyicha davlat xizmatlarini proaktiv tarzda koʻrsatish (xizmat koʻrsatuvchi tashkilotning oʻz tashabbusi bilan fuqaro murojaatini kutmasdan) yuzasidan taklif berish amaliyotini yoʻlga qoʻyish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil may	Hisob-kitoblarga koʻra	Viloyat hokimining oʻrinbosari N.Hamdamiyov	“Buxoro hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgaz Buxoro” gaz taʼminoti filiali, “Buxorosuvtaʼminot” MCHJ, adliya boshqarmasi
10-maqsad: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish							
7.	Fuqarolarning davlat fuqarolik xizmatiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.	Davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlariga ochiq tanlovni oʻtkazishda shaffoflikni oshirish va inson omilini qisqartirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish	2023-yil iyun	-	Viloyat hokimining oʻrinbosari M.Xamrayev	Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat boʻlimi
11-maqsad: Xalq bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
8.	Hududlarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan dolzarb muammolarni tezkor hal etish maqsadida har oyda kamida bir marotaba Hukumat a'zolari ishtirokida "Hukumat kuni" ni o'tkazib borish amaliyotini yo'lga qo'yish.	"Hukumat kuni" ni yuqori saviyada tashkil etishga har tomonlama ko'maklashish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining o'rinbosarlari J.Tursunov, N.Hamdorov, R.Asodov, A.Nazarov, E.Majidov, M.Xamrayev, F.Ibragimova	Viloyat adliya boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari, viloyatdagi davlat tashkilot va muassasalari
12-maqsad: Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish							
9.	Aholi e'tirozlariga sabab bo'layotgan tizimli masalalarni aniqlash va ularga yechim topish ishlari sifatini oshirish, aholi muammolari va murojaatlar bilan ishlashda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.	Viloyat, tumanlar va shaharlar Xalq qabulxonalari huzurida taniqli huquqshunoslari, mahalla raislari, ziyolilar, ijodkorlar, jurnalistlar va blogerlardan tarkib topgan "Xalq ovozi" jamoatchilik kengashlari faoliyatini yo'lga qo'yish, bunda: eng ko'p e'tirozlarga sabab bo'layotgan masalalarni muhokama qilish , ular bo'yicha tegishli davlat idoralari rahbarlarining hisobotini eshitish hamda mazkur muammolarning bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish ; joylarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash maqsadida jamoatchilik orasida mamlakatimizda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish yuzasidan amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan tadbirlar bo'yicha targ'ibot ishlari tashkil etish; oliy ta'lim muassasalari, yetakchi sosiolog, psixolog olimlar va boshqa mutaxassislarni jalb qilgan holda jamiyatdagi, aholi kayfiyatidagi o'zgarish va talablarni o'rganib borish; fuqarolar tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni tegishli soha mutaxassislari va jamoatchilik vakillari ishtirokida muhokama qilish, ular bilan tushuntirish ishlari olib borish, e'tirozlarga sabab bo'layotgan holatlar bo'yicha tegishli tashkilotlarga axborot va takliflar kiritish.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2023-yil may	-	Viloyat hokimining o'rinbosarlari, viloyat hokimligi apparati murojaatlar bilan ishlash bo'limi T.Jumayev	Viloyat, tumanlar va shaharlar xalq qabulxonalari
II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOIYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANDIRISH							
14-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylilni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezonini sifatida belgilash							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
10.	Bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik o'tkazishning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish.	1. Bolalarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishda davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilash. 2. Bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash, tazyiqlarga chek qo'yish mexanizmini takomillashtirish. 3. Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan bolalarga kompleks yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish.	Qonun loyihasiga takliflarni kiritish	2023-yil iyul	-	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat hokimligi apparati bolalarni himoya qilish kotibiyati, adliya boshqarmasi, viloyat prokuraturasi, ichki ishlar boshqarmasi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
16-maqsad: Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish							
11.	Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi tashkiliy-boshqaruv faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.	1. Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida yagona boshqaruv tizimini yaratish. 2. Hududiy tergov bo'linmalari xodimlarini ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rag'batlantirish tartibini takomillashtirish. 3. Jinoyatlarni tergov qilish jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.	Normativ-huquqiy-hujjat loyihasiga takliflarni kiritish	2023-yil avgust	-	Viloyat hokimligi apparati guruh rahbari B.Norbayev	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi, viloyat prokuraturasi, adliya boshqarmasi
12.	Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasini "shahar avtomobillar emas, balki piyodalar uchun" g'oyasi asosida isloh qilish.	Buxoro va Kogon shaharlari, tumanlar markazlarida transport vositalari harakatlanishining eng yuqori tezligini soatiga 70 kilometrdan 60 kilometrgacha tushirish.	Normativ-huquqiy-hujjat loyihasiga takliflarni kiritish	2023-yil mart	-	Viloyat hokimligi apparati guruh rahbari B.Norbayev	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
18-maqsad: Sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash							
13.	Sud hujjatlarining ijrosini ta'minlash maqsadida undiruvni mulkiy huquqlarga qaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirish.	Undiruvni uzoq muddatli ko'chmas mulk ijarasi huquqiga, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarga, intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarga qaratish tartibining huquqiy asoslarini mustahkamlash.	Normativ-huquqiy-hujjat loyihasiga takliflarni kiritish	2023-yil oktyabr	-	Viloyat hokimligi apparati guruh rahbari B.Norbayev	Viloyat prokuraturasi, adliya boshqarmasi
14.	Ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini yanada takomillashtirish.	Ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini qarzidor jismoniy shaxslardan kommunal xizmatlar uchun qarzidorlikni undirish to'g'risidagi sud hujjatlariga nisbatan tatbiq etish.	Normativ-huquqiy-hujjat loyihasiga takliflarni kiritish	2023-yil oktyabr	-	Viloyat hokimligi apparati guruh rahbari B.Norbayev	Viloyat prokuraturasi, adliya boshqarmasi
III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH							
21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 barobar (1750 dollardan 2800 dollarga) va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtaachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
15.	Iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.	1. 2023 yilda viloyatda iqtisodiy o'sish sur'atlari 4 foizda bo'lishini ta'minlash. 2. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmini 25,2 mln. so'mga yetkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining o'rinbosari J.Tursunov, R.Asadov	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, Markaziy bank viloyat boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
		3. Yillik inflyasiya darajasini 9,5-10 foizgacha pasaytirish. Bunda: makroprudensial nazorat mexanizmlari va vositalarini takomillashtirish, ularni pul-kredit siyosati chora-tadbirlari bilan muvofiqlashtirish orqali inflyasiya darajasini pasaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash ; narx shakllanishining bozor mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish va tartibga solinadigan tovarlar narxini qayta ko'rib chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish	2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari J.Tursunov	Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
22-maqсад: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish							
16.	Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarining uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash.	Mahalliy zavodlarda suyultirilgan gaz va neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish.	Tashkiliy-huquqiy choralar	2023-yil mart	Qazib chiqarish va ishlab chiqarish korxonalari mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari N.Hamdorov	Manfaatdor tashkilot va muassasalar
17.	Davlat dasturi doirasida umumiy qiymati 153,8 mln. dollarlik 10 ta loyihani ishga tushirish.	1. Loyihalar kesimida tarmoq jadvallari ishlab chiqilib, har bir ishga tushadigan loyihaga mas'ullarni biriktirilishi va tasdiqlanishini ta'minlash hamda ijtiroga qaratish. 2. Tarmoq jadvallarida belgilangan chora-tadbirlarning natijadorligini tahlil qilib borish, mavjud muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rish, tegishli yig'ilishlarda muhokama qilib borishni tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil mart har oy yakunida	-	Viloyat hokimining o'rinbosari R.Asadov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
18.	Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish.	Oziq-ovqat xomashyo bazasini kengaytirish va mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish dasturini ishlab chiqish. Bunda: 2023 yil yakuniga qadar 3 650 mlr. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishini ta'minlash; qayta ishlash quvvatlarini meva-sabzavot mahsulotlarida 225 ming tonnaga, sut mahsulotlarida 201,8 ming tonnaga va go'sht mahsulotlarida 7,6 tonnaga yetkazish; 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari importini qisqartirish uchun qiymati 980,8 mlrd. so'mlik 67 ta loyihalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.	Chora-tadbirlar dasturi	2023-yil mart	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Nazarov, R.Asadov	Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi, investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi
19.	Viloyat to'qimachilik sanoatida mahsulot eksporti hajmini 1,4 barobarga oshirish.	Yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport geografiasini kengaytirish, jumladan 65R+ refrensiyalaridan keng foydalangan holda eksport hajmini 180 mln. dollarga yetkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining o'rinbosari R.Asadov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, manfaatdor tashkilot va muassasalar
20.	Mahalliy ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi aloqalarini yanada kengaytirish.	Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini yuqori darajada o'tkazish hamda respublika sanoat yarmarkalarida mas'ullar ishtirokini ta'minlash. Bunda: hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida tarmoqlar va yirik sanoat korxonalari tomonidan asosiy faoliyat turi bo'yicha kooperatsiya asosida o'zlashtirish tavsiya etiladigan tovarlar namunalari namoyish etish va yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat kooperatsiyasiga qiziqish bildirgan xususiy korxonalarni "shatakka olish" ; yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qurilish materiallari, metallokonstruksiya va uskunalari, elektrotexnika mahsulotlari, tez ishdan chiquvchi va doimiy foydalaniladigan butlovchi qismlarni o'zlashtirish hamda sotib olish bo'yicha mahalliy korxonalar bilan hamkorlik shartnomalarini imzolash nazarda tutiladi.	Chora-tadbirlar rejasi	2023-yil aprel	-	Viloyat hokimining maslahatchisi H.G'oyirov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, savdo-sanoat palatasining viloyat hududiy boshqarmasi, "Buxoro kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona direksiyasi" davlat muassasi, "G'ijduvon" EIZ direksiyasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
21.	Ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan yangi turdagi, respublikada ishlab chiqarilmaydigan mahsulotlarni mahalliy lashtirish.	1. Hududlarning salohiyati, geografik joylashuvi hamda tabiiy va mineral resurslarini hisobga olgan holda yangi turdagi yuqori texnologik, zamonaviy, energiya tejankor, innovatsiya va fan yutuqlariga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish dasturini ishlab chiqish. 2. Mahalliy lashtirish dasturi doirasida 1,7 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarish.	Chora-tadbirlar dasturi Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil mart 2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining maslahatchisi H.G'oyirov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
22.	Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga, eksportni 1,2 barobarga oshirish va investitsiyalarni keng jalb qilish.	1. 100 mlrd. so'mlik ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish. 2. Ipak mahsulotlarining eksportini 10 mln. dollarga yetkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining o'rinbosarlari R.Asadov, A.Nazarov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, qishloq xo'jalik boshqarmasi
24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish							
23.	Viloyatda 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 42 mln. kVt soatga oshirib, jami 1,3 mlrd kVt soatga yetkazish.	Buxoro viloyatida umumiy quvvati 200 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyalarini qurish loyihalari bo'yicha bitimlarni imzolash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	Xalqaro moliya institutlari va ijrochilar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar	Viloyat hokimining o'rinbosarlari N.Hamdov, R.Asadov	"Buxoro hududiy elektr tarmoqlari" AJ, investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
24.	Energiya samaradorligini oshirish Milliy dasturiga takliflarni ishlab chiqish.	Iqtisodiyot energiya iste'molini kamaytirish va energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha milliy dasturiga takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga taklif	2023-yil iyul	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining o'rinbosari N.Hamdov	"Buxoro hududiy elektr tarmoqlari" AJ, investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi
25.	Kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni keskin oshirish.	2023-yilda davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy hokimliklar tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatish bo'yicha manzilli dasturni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga taklif	2023-yil aprel	-	Viloyat hokimining o'rinbosari N.Hamdov	"Buxoro hududiy elektr tarmoqlari" AJ, investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, manfaatdor tashkilot va muassasalar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
25-maqsad: Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
26.	2023 yilda axborot texnologiyalari sohasida eksport hajmini oshirish.	1. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari sonini 12 taga oshirish. 2. Kompyuter dasturlash va outsorsing xizmatlari hajmini 26 mlr. so'mga va ularning eksporti hajmini 600 ming dollarga yetkazish. 3. IT-park rezidentlari tomonidan axborot texnologiyalari sohasida venchur moliyalashtirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash (akselerator) va kibersport sohasida xizmat ko'rsatishga ruxsat berish orqali rezidentlar amalga oshirishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini kengaytirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining o'rinbosari N.Hamdamov	Viloyat raqamli texnologiyalar boshqarmasi
27.	Aholi yashash punktlarini telekommunikasiya xizmatlari bilan qamrab olish.	1. Viloyatda 3 200 km optik tolali aloqa liniyalari qurish orqali ularning umumiy uzunligini 13 793 kmga yetkazish. 2. Mobil aloqa operatorlari tomonidan qo'shimcha baza stansiyalari o'rnatish va respublikadagi aholi yashash punktlarida mobil aloqa va keng polosali mobil Internet xizmatlari qamrovini 99 foizga yetkazish. 3. Mobil aloqa operatorlari tomonidan qo'shimcha baza stansiyalari o'rnatish orqali xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llarida mobil aloqa va Internet qamrovini 70 foizga yetkazish. 4. Qo'shimcha ravishda 38 400 ta keng polosali Internet portlar o'rnatish orqali ularning umumiy sonini 361 584 taga yetkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	Telekommunikasiya operatorlari va provayderlari mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari N.Hamdamov	Viloyat raqamli texnologiyalar boshqarmasi
26-maqсад: Investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, 2023 yilda 347,7 mln. dollar xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlarni jalb etish choralarini ko'rish							
28.	Viloyatning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish.	1. 347,7 mln. dollarlik xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlarni o'zlashtirish. 2. 10 ta yirik ishlab chiqarish ob'ektlari va quvvatlarini ishga tushirish orqali 2 650 ta yangi ish o'rinlarini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	347,7 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va xorijiy kreditlar	Viloyat hokimining o'rinbosari R.Asadov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
30.	Iqtisodiyotga xorijiy va mahalliy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yaxshilash.	Hududlarning investitsiya jozibadorligini har tomonlama baholash va hududlar o'rtasida investitsiyalarni jalb etishda sog'lom raqobatni shakllantirish uchun investitsiya standarti tizimi va investitsiya muhiti reytingini amaliyotga joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar rejasi	2023-yil aprel	-	Viloyat hokimining o'rinbosari R.Asadov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi
31.	2023 yildan boshlab har bir hokim o'z tumani (shahri)ga 40-50 million dollar xususiy investitsiya olib kelishini tashkil etish.	1. Shaharlar va tumanlar, investitsiya loyihalari kesimida manzilli loyihalar ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash. 2. Investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha oyma-oy grafiklar ishlab chiqish, ularni tasdiqlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023 yil aprel	-	Viloyat hokimining o'rinbosari R.Asadov	Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
32.	Investitsiya dasturlarini mahalla darajasiga tushirish va mahallalarning moliyaviy vakolatlarini kengaytirish.	Mahalla o'z muammolarini mustaqil hal etishi uchun "Mahalla byudjeti" tizimini soliq larni undirish ko'rsatkichi past bo'lgan bitta tumanda eksperiment tariqasida joriy etish hamda uning samaradorligi, natijadorligi va tizimni barcha tuman (shahar)larda joriy etish yuzasidan taklif kiritish.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2023-yil mart	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari J.Tursunov	Viloyat davlat soliq boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
27-maqсад: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish							
33.	Xususiy lashtirish dasturi doirasida 75 ta korxonani savdoga chiqarish.	Davlat ishtirokidagi korxonalar, xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi davlat muassasalari va davlat ko'chmas mulk ob'yektlarini davlatda saqlab qolish mezonlaridan kelib chiqib "sot yoki tushuntir" tamoyili asosida davlat ishtirokidagi korxonalar sonini keskin qisqartirish hamda kamida 111 ta davlat aktivlarini ommaviy savdolar orqali xususiy lashtirishni nazarda tutuvchi qaror loyihasiga takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Normativ- huquqiy hujjat loyihasiga taklif	2023-yil aprel	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari J.Tursunov	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
34.	Bank tizimi aktivlarida xususiy sektor ulushini oshirish.	Bank tizimida davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformasiya jarayonlarini amalga oshirish orqali banklardagi davlat ulushini ochiq va shaffof mexanizmlar asosida xususiy lashtirishga ko'maklashish.	Amaliy tadbirlar	2023-yil davomida	-	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari J.Tursunov	Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
35.	Banklardagi omonatlarni himoyalash tizimini takomillashtirish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi “Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida” gi yangi qonun loyihasiga takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish: Banklardagi omonatlarni kafolatlash fondining (Fond) tashkiliy tuzilmasini va vakolatlarini belgilash; kafolatlanadigan omonatlar qamrovi va miqdorini belgilash; barcha banklarning Fondga a'zo bo'lishi lozimligini belgilash; banklarni sanasiyalashda Fond mablag'laridan foydalanish imkoniyatini yaratish; omonatlarni Fond tomonidan to'lab berilishi munosabati bilan omonatchilarning bankdan ustuvor ravishda talab qilish huquqini Fondga o'tkazish; Fondga to'lab berilishi lozim bo'lgan mablag'lardan to'langan badallarni chegirish amaliyotini bekor qilish.	Qonun loyihasiga taklif kiritish	2023-yil oktyabr	-	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari J.Tursunov	Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi
76.	Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 4 094 ming nafar ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish.	1. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 27 295 nafar ishsiz xotin-qizlarning manzilli ro'yxatlarini shakllantirish. 2. Har bir hududning o'ziga xos drayveridan hamda xotin-qizlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ularni ichki mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish. 3. Kasb-hunarga o'qitish markazlarida o'qitilgan, malakaga ega bo'lgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishi uchun ular faoliyatiga subsidiya va imtiyozli kreditlarni jalb etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil mart 2023-yil davomida	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ibragimova	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi
77.	Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash (EQAVET) tizimi talablariga to'liq javob beradigan namunaviy professional ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish.	2023-yil 1-sentyabrga qadar malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash (EQAVET) tizimi talablariga to'liq javob beradigan 1 ta namunaviy professional ta'lim muassasasi faoliyatini yo'lga qo'yish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2023-yil may	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
38-maqсад: Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
78.	6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ishlarini davom ettirish.	Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish orqali qamrov darajasini oshirish. Bunda: 14 ta qisqa muddatli tayyorlov guruhlar; 9 ta to'liq kunlik tayyorlov guruhlar; 18 ta majburiy bepul tayyorlov guruhlar; Maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil yakuniga qadar	278 mln. so'm Respublika byudjeti mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
79.	Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish.	Viloyatda 70 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish xisobiga 3 270 dan ortiq bolalar o'rni yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil yakuniga qadar	12,164 mlrd. so'm Respublika byudjeti mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
80.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlari samaradorligini oshirish.	1. Xalqaro loyihalar doirasida xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 60 nafar xodimlarini (40 soatga mo'ljallangan) qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qitish. 2. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amaliyotga keng joriy etish. 3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 25 nomdagi o'quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlash. 4. Ota-onalar uchun bolalar tarbiyasi va ta'limiga oid Internet resurslarini yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil noyabr	140 ming AQSH dollari Jahon banki mablag'lari, byudjet mablag'lari parametrlarida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, raqamli texnologiyalar boshqarmasi
40-maqсад: Maktabgacha ta'lim tizimida byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash.							
81.	Maktabgacha ta'lim tizimida noqonuniy moliyaviy xatti-harakatlar, korrupsiya holatlari va byudjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishini oldini olish.	1. 40 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida avtomatlashtirilgan tizimni ishga tushirish uchun texnik vositalarni xarid qilish. 2. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini ishga tushirish. 3. Xodimlar va tarbiyalanuvchilarning davomati hamda bolalarni ovqatlanirish bilan bog'liq xarajatlarni elektron hisoblanishini yo'lga qo'yish. 4. "Yagona mavsumiy taomnoma"ni joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil sentyabr	Respublika byudjetidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
41-maqсад: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish							

T/r	Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Masʼul ijrochilar
82.	Yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruktsiya qilish hamda ularda zarur shart-shaoitlarni yaratish.	1. “ Namunaviy maktab ” loyihalari asosida 13 ta maktabni rekonstruktsiya qilish va yangidan barpo etish orqali 3,8 ming oʻquvchi oʻrmini yaratish. 2. Maktablarni toʻliq zamonaviy mebel, uskunalar bilan jihozlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	74,9 mlrd. soʻm Davlat byudjeti, mahalliy byudjet, homiylar va tadbirkorlar mablagʻlari, xorijiy bank kreditlari	Viloyat hokimining oʻrinbosarlari N.Hamdamov, M.Xamrayev	Viloyat hokimligi huzuridagi Yagona byurtmachi xizmati injineriing kompaniyasi, qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi, maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
		3. Umumtaʼlim maktablaridagi 80 ta maʼnan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash.	Amaliy chora-tadbir	2023-yil yakuniga qadar	Respublika byudjeti 17,7 mlrd. soʻm , mahalliy byudjet 0,5 mlrd. soʻm	Viloyat hokimining oʻrinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
		4. Viloyatdagi 12 ta (<i>shundan 7 ta oʻgʻil bolalar va 5 tasi qiz bolalar xonasi</i>) maktabdagi texnologiya xonalarini jihozlash.	Amaliy chora-tadbir	2023-yil yakuniga qadar	Mahalliy byudjet mablagʻlari	Viloyat hokimining oʻrinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
		5. Nodavlat taʼlim tashkilotlari sonini 22 taga yetkazish.	Amaliy chora-tadbir	2023-yil yakuniga qadar	Tadbirkorlar mablagʻlari, xorijiy bank kreditlari	Viloyat hokimining oʻrinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi
		42-maqсад: 2026 yilga qadar oʻquv dasturlari va darsliklarni ilgʻor xorijiy tajriba asosida toʻla qayta koʻrib chiqib, amalda joriy etish					
83.	Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻquvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ koʻnikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim dasturlarini amaliyotga kiritish.	1. Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining 1-4-sinflarida oʻquvchilarni ilgʻor xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar boʻyicha oʻqitish. 2. 5-9-sinflarda oʻquvchilarga umumtaʼlim fanlaridan tayanch bilimlar berish. 3. 10-11-sinf oʻquvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos boʻlgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil sentyabrdan boshlab bosqichma-bosqich	-	Viloyat hokimining oʻrinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi
44-maqсад: Maktablarda taʼlim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
84.	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish.	1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilish. Bunda, ommaviy axborot vositalari orqali inklyuziv ta'lim tizimining ijobiy tomonlarini ota-onalarga keng targ'ib qilish. 2. Har bir tuman (shahar)da kamida bittadan inklyuziv maktablar tashkil etish. 3. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan (eshitishda nuqsoni bo'lgan) 1-sinf o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularga eshitish moslamalarini taqdim etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil sentyabr	Ijrochilar mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, sog'liqni saqlash boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
45-maqсад: Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash.							
85.	Viloyatdagi barcha umumta'lim maktablarida sog'lom ovqatlanish tizimini amalga oshirish.	1. Viloyatdagi barcha maktablarida 2023/2024 o'quv yilidan boshlab 1-4-sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlashni tashkil etish. Bunda, ovqat turlari o'quvchilarning yoshi va sog'lig'i holatiga ko'ra me'yorlangan holda yetkazib berilishi hamda sanitariya talablariga javob berishini ta'minlash. 2. Monitoring natijalari asosida muammolarni hal etish tizimini yaratish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2023-yil may	Davlat byudjeti mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, iqtisod va moliya boshqarasi
46-maqсад: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish							
86.	Oliy ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish samaradorligini oshirish.	Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida: 1. Professor-o'qituvchilarni xorijiy davlatlarda malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborish. 2. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun xorijdan professor-o'qituvchilarni jalb qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil dekabr	Oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari
48-maqсад: Qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish.							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
87.	Talabalarni turar joy bilan ta'minlanish darajasini oshirish.	1. Talabalar turar joylarini qurish uchun yer maydonlarini belgilangan tartibda ajratish. 2. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, oliygoh va byudjet mablag'lari hamda investitsiya dasturi doirasida talabalar turar joylarini qurish bo'yicha loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish. 3. 2023 yil yakuniga qadar davlat xususiy sherikchilik asosida talabalar turar joylarini qurish, ushbu loyihalar doirasida qurilayotgan talabalar turar joylarini foydalanishga topshirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil mart-sentyabr	Tadbirkorlik sub'yektlari mablag'lari, Davlat	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari
52-maqсад: Global innovasion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030 yilga qadartop-50 mamlakatlari qatoriga kirish.							
88.	2023 yilda 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida O'zbekiston ishtirokini ta'minlash.	1. Xalqaro dastur haqida targ'ibot-tashviqot, seminar va treninglar tashkil etish, maktab direktorlari va o'qituvchilarning salohiyatini rivojlantirish. 2. Xalqaro tashkilotlar tomonidan tanlab olingan 8 ta maktabda moddiy-texnika bazani mustahkamlash, Internet tarmog'iga ulanish sifatini oshirish hamda tadqiqotlarni tashkil etish. 3. 2024 yilda xalqaro darajada e'lon qilinadigan tadqiqotlar natijalari asosida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, maktab ta'limi, o'quv dasturlari va o'qitish metodikalarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil noyabr	Jahon bankining "Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi mablag'lari hisobidan	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi
56-maqсад: Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish.							
89.	Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish ishlarini davom ettirish.	Toshkent shahrida joriy etilgan davlat tibbiy sug'urtasi tizimini viloyatdagi tibbiyot muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha taklif kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil iyul	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi viloyat vakilligi
59-maqсад: Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag'larni oshirish.							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
90.	Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, kasalliklarni erta aniqlash, kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzini ommalashtirish.	1. 18-40 yoshli 662 143 nafar aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish. 2. 40 yosh va undan katta yoshdagi surunkali kasalligi bo'lmagan 570 665 nafar aholini yurak qon-tomir kasalligi va qandli diabet bo'yicha skrining tekshiruvlardan o'tkazish. 3. 232 500 nafar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiya-lanuvchilari va o'rta maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish. 4. Onkologik kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlash maqsadida yiliga 123 919 nafar aholini skriningdan o'tkazish. 5. Respublika bo'yicha 6-23 oylik bo'lgan jami 58 188 nafar bolalarni mikronutrient kukuni bilan bepul ta'minlash. 6. 2-10 yoshdagi jami 328 785 nafar bolalarga gelmintozi profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar bilan ta'minlash. 7. Homilador va bola emizuvchi ayollar hamda 450 759 nafar 3-15 yoshdagi bolalarni, yod preparati bilan ta'minlash. 8. 667 399 nafar 35 yoshgacha tug'ish yoshidagi ayollarni polivitamin, temir va foliy kislotasi preparati bilan bepul ta'minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	Hisob-kitoblarga ko'ra Ajratilgan Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
60-maqsad: Reproktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.							
91.	Viloyatdagi 3 ta tumanlararo perinatal markazlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash	Tumanlararo perinatal markazlari uchun ajratiladigan asbob-uskunalar muassasalarga o'rnatish	Amaliy chora- tadbirlar	2023-yil avgust	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi kredit mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi
92.	Onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish.	Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha uch yillik dasturni amalga oshirish orqali barcha tug'ruq komplekslarini to'liq ta'mirlash va jihozlash hamda o'rinlar sonini 2023 yilda qo'shimcha 88 taga ko'paytirish.	Dastur loyihasi	2023-yil mart	Davlat byudjeti mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
93.	Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar bo'yicha epidemiologik barqarorlikni ta'minlash hamda mamlakat qo'lga kiritgan mavjud elyuminasiya sertifikatlarini saqlab qolish maqsadida profilaktik emlash tadbirlarini tashkil etish.	1. Viloyat bo'yicha 154 138 nafar bolalarda 13 turdagi vaksinalar bilan boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash. 2. Respublika bo'yicha 4-9 oylik 44 568 nafar bolalar o'rtasida poliomiyelit kasalliklariga qarshi emlash. 3. 7 yoshgacha bo'lgan 81 181 nafar bolalar o'rtasida qizamiq va qizilcha kasalliklariga qarshi emlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2023-yil noyabr	Hisob-kitoblarga ko'ra Davlat byudjeti mablag'lari, Xalqaro tashkilotlar mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
94.	Onalar va go'daklar o'limi holatlarining oldini olish.	1. Onalar o'limi konfidensial muhokamasini yo'lga qo'yish. 2. OITS bilan kasallangan homiladorlarni davolash va antenatal kuzatuv sifatini yaxshilash borasida o'quv dasturlarini ishlab chiqish. 3. Spinal mushak atrofiyasi bilan kasallangan 9 nafar bolalarni dori vositalari bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar Tashkiliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	Hisob-kitoblarga ko'ra Davlat byudjeti mablag'lari, Xalqaro tashkilotlar mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi
63-maqсад: Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarni tashkil etish.							
95.	Aholi orasida virusli gepatitning "V" va "S" turlarini erta tashxislash va davolash tadbirlarini amalga oshirish.	1. Viloyatda 40 000 nafar aholini virusli hepatitlarning "V" va "S" turlariga skrining tekshiruvdan o'tkazish. 2. Skrining tekshiruvlarida virusli gepatitning "S" turi tasdiqlangan 840 nafar bemorlarda davolash tadbirlarini o'tkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil noyabr	Hisob-kitoblarga ko'ra Davlat byudjeti mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
64-maqсад: Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni "bir qadam" tamoyili asosida tashkil etish.							
96.	Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish.	Hududdagi mavjud ehtiyoj va aholining takliflarini inobatga olgan holda: 3 ta oilaviy poliklinika; 89 ta oilaviy shifokor punkti; 26 ta ixcham mahalla tibbiyot punktlarini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	Mahalliy byudjet mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
65-maqсад: Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish.							
97.	Davolash-profilaktika muassasalarida xodimlar uchun ularning ish samaradorlik ko'rsatkichlariga qarab rag'batlantirish amaliyotini joriy etish.	Erishilgan ijobiy natijalar bo'yicha eng maqbul bo'lgan baholash tizimini tanlab olib, boshqa tibbiyot muassasalariga joriy etish. Xodimlarni ularning ish samaradorligi ko'rsatkichlariga qarab rag'batlantirish tartibini belgilash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil iyul	-	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
66-maqсад: Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish.							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
98.	Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam berish bo'yicha Buxoro viloyatida 10 o'rinli reabilitatsiya markazi faoliyatini tashkil etish.	Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam berishni hududlarga yaqinlashtirish maqsadida Buxoro viloyatida reabilitatsiya markazi faoliyatini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil dekabr	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimligi apparati guruh rahbari B.Norbayev	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
67-maqсад: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.							
99.	Davlat boshqaruvi organlari xodimlari o'rtasida ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish.	1. Vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, bunda: Tashkilot va muassasalar jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalarini ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash, ulardagi sport targ'ibotchilari ishini faollashtirish. 2. Tashkilot va muassasalar xodimlari o'rtasida jamoaviy sport turlari bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish. 3. Tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan xodimlar ixtiyoriy sport sinovlaridan o'tkazish. 4. Umumxalq bayramlari arafasida sport normativlarini topshirish bo'yicha eng yuqori natija ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish va ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida 2023-yil davomida 2023-yil sentyabr 2023-yil davomida	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari- ning kalendar rejalari doirasida ajratilgan mablag'lari, hamiylar va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi, manfaatdor tashkilot va muassasalar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
100.	Aholi o'rtasida "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi" umummilliy harakatini amalga oshirish.	2023-2025 yillarga mo'ljallangan "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi" umummilliy harakatini amalga oshirish bo'yicha dasturi loyihasiga takliflarni Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etish.	Taklif kiritish	2023-yil mart	-	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi
101.	Mamlakatimizda xotin-qizlarning sportga jalb etish qamrovini yanada kengaytirish.	1. Ta'lim va sport-ta'lim muassasalarida, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarida xotin-qizlar sport seksiyalarini ko'paytirish. 2. Sport turlari bo'yicha xotin-qizlar terma jamoalari a'zolarini sport musobaqalari va o'quv-mashg'ulot yig'inlariga yuborishni ko'paytirish. 3. Olimpiya sport turlari bo'yicha nufuzli xalqaro musobaqalarda g'olib va sovrindor bo'lgan qizlar, ayollarning natijalari hamda ibratli hayotini mahalla va umumta'lim maktablarida keng targ'ib etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil sentyabr 2023-yil davomida	Mazkur maqsaddar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
102.	Respublikada milliy sport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish.	1. Milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli sport musobaqalarini o'tkazish tizimini joriy qilish. 2. Milliy sport turlari va xalq o'yinlarini targ'ib qilish va yanada ommalashtirish bo'yicha polvonlar va faxriy ustozlar ishtirokida turkum ko'rsatuvlarni tashkil etish. 3. Umumxalq bayramlari arafasida milliy va xalq o'yinlari bo'yicha sport musobaqalari va festivallarini tashkil etish. 4. Yoshlar o'rtasida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini keng targ'ib qilish maqsadida milliy kurash, uloq-ko'pkari bo'yicha sport musobaqalari hamda mind, qarab tep, arqon tortish, oq terakmi-ko'k terak va o'rta tur kabi tadbirlarini o'tkazish.	Amaliy chora- tadbirlar	2023-yil davomida	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalar doirasida ajratilgan mablag'lar, Ijrochilar mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Viloyat yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
69-maqsad: Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash.							
103.	Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish , ularni manzilli qo'llab-quvvatlash.	1. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, tazyiq va zo'ravonlikdan, odam savdosidan jabrlanganlar hamda profilaktik va probasiya hisobida turuvchilarning xonadonlariga borib ijtimoiy holatini o'rganish. 2. O'rganishlar natijalariga ko'ra ularning muammolarini hal etish bo'yicha individual yondashuvlar asosida ishlash. 3. Muammosi aniqlangan xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda sektorlar, tegishli davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda ijtimoiy, huquqiy, psixologik hamda moddiy yordamlar ko'rsatish. 4. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga Ayollarni reabilitasiya qilish va moslashtirish markazida hamda ularning qoshida tumanlar va shaharlarda tashkil etilgan "Ijtimoiy maslahatxonalar" orqali yordam ko'rsatish choralari ko'rish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil davomida	Hisob-kitoblarga ko'ra (byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan)	Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ibragimova	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, oila va xotin-qizlar boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
104.	15 may – “Xalqaro oila kuni”ni keng nishonlash va “Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi” ko'rik-tanlovini o'tkazish.	1. “Xalqaro oila kuni”ni keng nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tayyorlash, shu jumladan ko'rik-tanlov Nizomi, uni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Hududlarda 15 may - “Xalqaro oila kuni”ga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish va g'oliblarni taqdirlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil mart 2023-yil may	Hisob-kitoblarga ko'ra ijrochilar va homiylik mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ibragimova	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi, madaniyat boshqarmasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, viloyat teleradiokompaniyasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
105.	Xotin-qizlarning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo'lishlariga ko'maklashish hamda oliy ma'lumotli ayollar safini kengaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolliklarini oshirish.	“Ilmli ayol - jamiyat ko'zgusi” shiori ostida “XXI asr ayoli” xotin-qizlar festivalini o'tkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil avgust-oktyabr	Hisob-kitoblarga ko'ra ijrochilar mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining grantlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ibragimova	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, raqamli texnologiyalar boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
70-maqсад: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish							
106.	Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish.	Madaniyat, san'at, sport, intellektual o'yinlar, kitobxonlik, "Ay-Ti" bo'yicha 5 bosqichli Besh tashabbus olimpiadasini tashkil etish.	Vazirlar Mahkamasi bayoni loyihasiga taklif kiritish	2023-yil iyun	Hisob-kitoblarga ko'ra (ijrochilar mablag'lari)	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi, madaniyat boshqarmasi, raqamli texnologiyalar boshqarmasi
107.	Mahallalardagi yoshlar yetakchilari o'rtasida “Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi” tanlovini tashkil etish.	1. Tanlov nizomi va tadbirlar rejasini tasdiqlash. 2. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat komissiyasi tomonidan yetakchilar faoliyati samaradorligini o'rganib borish. 3. Tanlovning tuman (shahar) bosqichlarini o'tkazish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga taklif kiritish	2023-yil dekabr	Hisob-kitoblarga ko'ra Davlat byudjeti mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
V. MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH VA SOHANI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH							
71-maqсад: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
108.	Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish.	Milliy tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar natijadorligini oshirishga doir quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish: mahallalar, ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlash; "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz!" shiori ostida ijtimoiy aksiya va fleshmoblar o'tkazish; tarmoq va sohalar bo'yicha "Milliy qadriyatlarning eng faol targ'ibotchisi" tanlovini o'tkazish.	Bayon loyihasi	2023-yil may	-	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, madaniyat boshqarmasi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, oila va xotin-qizlar boshqarmasi
109.	Mahallalarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolliklarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish.	1. Barcha mahallalarda xotin-qizlar faoli mas'ulligida "Oqila ayollar" harakati negizida otinoyilar, ko'chaboshilar, yoshlar yetakchilari, faol xotin-qizlardan iborat tarkibda mahalla targ'ibot guruhlarini shakllantirish. 2. Har bir tuman (shahar)ning tadbirlarni o'tkazish grafiklari ishlab chiqish. 3. Grafik asosida targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil mart	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ibragimova	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Din ishlari bo'yicha qo'mitaning viloyat boshqarmasi, madaniyat boshqarmasi, vazirligi, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, shaharlar va tumanlar hokimliklari
72-maqсад: Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish							
110.	Hududlarda kitobxonlikni targ'ib qilishning ta'sirchan va samarali usullarini joriy qilish.	Kitobxonlik tadbirlarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Bunda: hududlarda ushbu yo'nalishda qulay shart-sharoitlar va infratuzilma yaratish; kitobxonlik tadbirlarini taniqli ijodkorlar, ziyolilar ishtirokida adabiyot va kitobxonlik bayrami sifatida yuqori saviyada tashkil qilish; "Kitobsevar millat" oyliklari doirasida ma'rifiy tadbirlar, kitob savdo-yarmarkalari, kitob festivallari va "Kitob karvoni" aksiyalarini uyushtirish.	Chora-tadbirlar rejasini	2023 yil may	Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va qonun hujjatlarida taqiqlanmaga boshqa manbalar	Viloyat hokimining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, Axborot kutubxona markazi

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
111.	Mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz atqili namoyandalarining tavallud sanalarini adabiyot va kitobxonlik bayrami sifatida munosib nishonlash , ularning ijodiy merosini keng ommalashtirish.	1. Davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulom tavalludining 120 yilligini keng nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Chora-tadbirlar dasturi	2023-yil mart	Ijrochilar mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosari M.Xamrayev	Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, madaniyat boshqarmasi
74-maqсад: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash							
112.	Yurtimizda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va xalqlararo do'stlikni targ'ib etuvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish.	1. 30 iyul - Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan "Do'stlik" festivalini tashkil etish va o'tkazish. 2. 16 noyabr - Xalqaro bag'rikenglik kuniga bag'ishlab "Bag'rikenglik" haftaligini o'tkazish.	Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasiga taklif kiritish	2023-yil iyun 2023-yil oktyabr	Hisob-kitoblarga ko'ra Vazirlar Mahkamasi xazira jamg'armasi, viloyat mahalliy byudjetining xazira jamg'armasi	Viloyat hokimining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari	Viloyat madaniyat boshqarmasi, Din ishlari bo'yicha qo'mitaning viloyat boshqarmasi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi
113.	Milliy madaniy markazlar qoshida faoliyat yuritayotgan folklor ansambllarini qo'llab-quvvatlash .	1. Milliy madaniy markazlar qoshidagi folklor ansamblining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni sahna liboslari, cholg'u asboblari, zamonaviy ovoz kuchaytirish va yoritish uskunalari hamda avtobus bilan ta'minlash. 2. Folklor jamoalariga repetisiya va konsert tomoshalarini o'tkazishlari uchun madaniyat markazlaridan bepul foydalanish sharoitini yaratish .	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga taklif kiritish	2023-yil iyun	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari	Viloyat madaniyat boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
76-maqсад: Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va ob'yektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash							
114.	Milliy madaniyatimiz va san'atimizni keng targ'ib qilishga qaratilgan xalqaro madaniy tadbirlarni o'tkazish .	Buxoro shahrida II xalqaro maqom san'ati anjumanini tashkil etish va o'tkazish.	Chora-tadbirlar dasturi	2023-yil may	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari	Viloyat madaniyat boshqarmasi, turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Tashqi ishlar vazirligining Buxoro viloyatidagi hududiy bo'linmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
115.	Viloyatning barcha hududlarida, ayniqsa, chekka qishloq va mahallalarda istiqomat qiladigan aholiga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish.	2023 yilda viloyat miqyosida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasini tasdiqlash, bunda: Hududlarda “Madaniyat karvoni”, “Madaniyat kunlari”, “Milliy kino kunlari”, “Kitob aksiyasi” tadbirlari; badiiy va sirk jamoalari, davlat teatrlarining gastrol safarlari, konsert va maydon tomoshalari, ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish va o'tkazishni nazarda tutish.	Chora-tadbirlar dasturi	2023-yil mart	Hisob-kitoblarga ko'ra Hisob-kitoblarga ko'ra 2023 yilda ijrochilarga ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar doirasida	Viloyat hokimining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari	Viloyat madaniyat boshqarmasi, Kinematografiya agentligi viloyat bo'limi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
116.	Yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, havaskor iste'dodli yoshlarni izlab topish , ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.	1. Havaskor ijodkor yoshlar teatr-studiyalari ko'rik-festivalini tashkil etish va o'tkazish. 2. “Yangi O'zbekistonning yangi iste'dodlari” qo'shiqlar teletanlovini o'tkazish. 3. Baxshichilik san'ati yo'nalishida yosh baxshilar, oqinlar va jirov ijrochilarining respublika ko'rik-tanlovida viloyatdan yoshlarning ishtirokini ta'minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil may 2023-yil iyun 2023-yil noyabr	Hisob-kitoblarga ko'ra	Viloyat hokimining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari	Viloyat madaniyat boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi
77-maqsad: O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish							
117.	O'zbekiston tarixining tarixiy jang san'atini ilmiy o'rganish va namoyish qilish orqali mamlakatning turistik salohiyatini yanada oshirish.	1. O'zbekiston tarixining tarixiy jang san'atini ilmiy o'rganish bo'yicha mutaxassislardan iborat tarkibda ishchi guruhni tashkil qilish. 2. Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi harbiy tematik lagerlarini tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish hamda Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasiga taqdim etish. 3. Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi harbiy tematik lagerlarini tashkil qilish hamda turistlar uchun namoyish etish chora-tadbir dasturiga takliflarni Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2023-yil iyun	Tashabbuskorlar va tadbirkorlik sub'yektlari mablag'lari	Viloyat hokimining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari	Viloyat madaniy meros boshqarmasi, mudofaa ishlari boshqarmasi, Buxoro davlat universiteti
VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH							
79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish							

T/r	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Nazorat qiluvchilar	Mas'ul ijrochilar
118.	Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizgacha qisqartirish.	1. Yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan kam bo'lmagan chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatishni tashkil qilish. 2. Xavflilik darajasi yuqori va o'rta bo'lgan metallurgiya, yog'-moy, energetika va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi 8 ta yirik va o'rta toifadagi korxonalarda samaradorligi 95 foizdan kam bo'lmagan chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil oktyabr	Hisob-kitoblarga ko'ra (korxonalarning o'z mablag'lari)	Viloyat hokimining o'rinbosari N.Hamdamov	Viloyat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
80-maqсад: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish							
